OSHQOZON SARATONIDAN KEYINGI JISMONIY REABILITATSIYADA BEMORLARNING DAVOLASH DASTURIGA RIOYA QILISH DARAJASINING AHAMIYATI

Rizayev J.A., Asatulayev A.F.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Dolzarbligi. Oshqozon saratoni tufayli o'tkazilgan xirurgik aralashuvlardan keyin bemorlarda jismoniy faollikning pasayishi, mushak kuchsizligi, tez charchash va kundalik faoliyatning cheklanishi kuzatiladi. Uzoq muddatli harakatsizlik nafas tizimi asoratlari va mushak massasi yo'qotilishi xavfini oshiradi. Erta faollashtirish, nafas gimnastikasi, dozalangan yurish va bosqichma-bosqich kuch mashqlarini o'z ichiga olgan reabilitatsiya dasturi funksional tiklanish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq uning samaradorligi bemorlarning belgilangan mashg'ulotlarni muntazam bajarishiga ham bog'liq.

Tadqiqot maqsadi. Oshqozon saratonidan keyingi davrda jismoniy reabilitatsiya dasturiga rioya qilish darajasining erta faollashish, nafas tizimi asoratlari va funksional tiklanishga ta'sirini baholash.

Materiallar va usullar. Xirurgik davolangan bemorlarda jismoniy reabilitatsiya dasturiga rioya qilish darajasi tahlil qilindi. Reabilitatsiya erta harakatlanish, nafas mashqlari, dozalangan yurish va mushak kuchini tiklashga qaratilgan mashg'ulotlarni qamrab oldi. Belgilangan mashg'ulotlarning kamida 80% ini bajargan bemorlar yuqori rioya qilish darajasiga ega guruh sifatida baholandi.

Tiklanish samaradorligi bemorlarning faollashish muddati, operatsiyadan keyingi pnevmoniya chastotasi, qo'l dinamometriyasi, EORTC QLQ-C30 so'rovnomasining jismoniy faoliyat ko'rsatkichlari va ECOG shkalasi asosida o'rganildi.

Natijalar. Bemorlarning 58,1% i jismoniy reabilitatsiya dasturiga yuqori darajada rioya qilgan. Mazkur guruhda bemorlar harakatlanishni o'rtacha 1,7 sutka ertaroq boshlagan.

Operatsiyadan keyingi pnevmoniya yuqori rioya qilish guruhida 4,1%, reabilitatsiya mashg'ulotlarini yetarli darajada bajarmagan bemorlarda 10,7% holatda qayd etildi.

Oltinchi oyda qo'l dinamometriyasi ko'rsatkichi mos ravishda 29,8 va 23,4 kg ni tashkil etdi. Jismoniy faoliyat ko'rsatkichi 78,4 va 62,1 ballga teng bo'ldi. Yuqori rioya qilish darajasiga ega bemorlarda charchoq belgilari 1,7 marta kamroq ifodalangan. ECOG 0–1 funksional holati 86,6% bemorlarda qayd etilgan bo'lsa, taqqoslash guruhida mazkur ko'rsatkich 70,0% ni tashkil etdi.

Xulosa. Jismoniy reabilitatsiya dasturiga yuqori darajada rioya qilish erta faollashish, nafas tizimi asoratlarining kamroq uchrashi va oltinchi oyda mushak kuchi hamda funksional mustaqillikning yaxshiroq tiklanishi bilan bog'liq. Oshqozon saratonidan keyin reabilitatsiyani tashkil etishda bemorning mashg'ulotlarga rioya qilishini muntazam baholash va individual motivatsion yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq.

Mualliflar haqida ma'lumot

Rizayev Jasur Alimjanovich – tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori; ORCID: 0000-0001-5468-9403

Asatulayev Akmal Farxatovich – PhD, Samarqand davlat tibbiyot universiteti onkologiya va DKTF onkologiya kursi bilan kafedrasi dotsenti; ORCID: 0000-0002-5835-312X. Tahririyat bilan yozishmalar uchun mas'ul.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Yozishma uchun manzil: Asatulayev Akmal Farxatovich, 140100, O'zbekiston Respublikasi, Samarqand sh., Amir Temur ko'ch., 18, Samarqand davlat tibbiyot universiteti; tel.: +998 93 722-44-74; e-mail: asatulaevakmal@gmail.com

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.